O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 3 - noyabr 343-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son farmonining 13-bandi, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori hamda yer ajratish materiallari vakolatli organlarning ijobiy xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5-, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasining 2023-yil 15-sentabrdagi 01-01/11-1699-sonli murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasiga “Ekologiya vazirligi bog‘i”ni tashkil etish uchun Guliston shahar “Yuksalish” MFY hududining shahar hokimligi zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan jami 2,15 gektar shundan A1724401024/2 (1,01 gektar) va A1724401024/3 (1,14

gektar) raqamli yer uchastkalari jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (I.Tagaev)ga:

“Ekologiya vazirligi bog‘i”ni barpo etish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarori 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda “Ekologiya vazirligi bog‘i”ni barpo etish uchun ajratilgan yer uchastkalari chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R.Boboyev va viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**